

## **Nafosat san'atining sohiblari**

2018 yil 14 fevral kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4-sonli talabalar turar joyida "Gidromelioratsiya" fakulteti talabalari Ibroxim Isroilov, Abdullo Hoshimovlar tashabbusi bilan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning tavallud kunlariga bag'ishlangan "Nafosat ilmining sohiblari" mavzusidagi davra suhbatি o'tkazildi.

"Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi Junsaliev Dilmudod tarbiyachi pedagog Javlonbek Qutlimurotov hamda "Gidromelioratsiya" fakulteti Yoshlar itifoqi a'zosi Sardor Vapaev, Azizjon Zokirjanov, Komila Jumanazarovalar qatnashdilar.

O'zbek xalqi uchun fevral oyi tom ma'noda bayramlar oyi hisoblanadi. Chunki bu oyda buyuk shoir va mutafakkir, dunyo tan olgan ikki alloma, davlat arbobi va buyuk so'z san'atkori bilan ulug' bobolarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun yurtimizda keng ishonlanadi.

Ular o'z nomi bilan butun bir xalq, Vatani sharafini mangulik sahifasiga muhrlaydi. Shukrlar bo'lsinkim, o'zbekda bunday cho'qqilar oz emas. Ularning biri Alisher Navoiy bo'lsa, ikkinchisi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bu ikki zot jahon adabiyotining ulug' namoyandalaridan biridir. Ular asrlar osha ona yurti va xalqining bo'yibastini butun dunyoga ko'z-ko'zlab kelmoqda. Bu ikki buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan adabiy va ilmiy meroslaridan yoshlarimiz, nafaqat bizning yoshlarimiz, balki ularning ijodiga katta qiziqish bilan murojaat qilib kelayotgan butun dunyo kitobsevarlari o'zlariga ma'naviy ozuqa va bebaho durdonalar olmoqdalar. Ularning asarları bir maktabdir desak, mubolag'a bo'lmas.



Bizning ziyo maskanimiz ham shunday daho bobolarimizning nodir asarlarini o'quvchi yoshlarimizga va kitobxonlarga targ'ib qilib, ularning ijodiyotidan ilhom olish va bahramand bo'lishlari uchun asosiy bilim dargohi vazifasini o'tab kelayotganini aytib o'tish o'rinnlidir.

**4 -TTJ tarbiyachi-pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**